E-ISSN 2181-379-5
9 772181 379008
ISSN 2181-3787
9 772181 378001

# PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

9(17)
2024



ISSN 2181-3787
E-ISSN 2181-3795

# "PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA"
**xalqaro ilmiy-metodik jurnal**

# «ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»
**международный научно-методический журнал**

# "PEDAGOGICAL ACMEOLOGY"
**international scientific-methodical journal**

**№9(17) 2024**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 - tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**Jurnal haqida**

***Jurnalga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommabiy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida 1672 raqamli guvohnoma berilgan.***

*“Pedagogik akmeologiya” xalqaro ilmiy-metodik jurnali*

“Pedagogik akmeologiya” xalqaro ilmiy-metodik jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo‘yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi to‘g‘risidagi Nizom” talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo‘yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

*«Педагогическая акмеология» международный научно-методический журнал*

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-методическом журнале «*Педагогическая акмеология*» являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

About the magazine

*“Pedagogical akmeology” international scientific-metodical journal*

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific-metodical journal "*Pedagogical akmeology*" are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the “Regulation on the Higher Attestation Commission” Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.

**Muassislar:** “Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ “Durdona” nashriyoti,
Buxoro davlat pedagogika instituti

**Tahririyat manzili:** Oʻzbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol koʻchasi, 11-uy
**Web-sayt: www.paresearchjournal.uz**
**Bosh muharrir:**
Hamroyev Alijon Roʻziqulovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
Husenova Aziza Sharipovna, pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Mas’ul kotib:**
Bafayev Muhiddin Muhammadovich, psixologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**TAHRIR HAY’ATI:**

***Muqimov Komil Muqimovich,*** *Oʻ zR FA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor*
***Xamidov Obidjon Xafizovich,*** *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*
***Adizov Baxtiyor Rahmonovich,*** *pedagogika fanlari doktori, professor*
***Ibragimov Xolboy Ibragimovich****, Oʻ zR FA akademigi, pedagogika fanlari doktori, professor*
***Abdullayeva Barno Sayfiddinovna,*** *pedagogika fanlari doktori, professor*
***Yanakiyeva Yelka Kirilova,*** *pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-Gʻarbiy Universitet, Bolgariya)*
***Madzigon Vasiliy Nikolayevich,*** *akademik, pedagogika fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)*
***Maksimenko Sergey Dmitriyevich****, psixologiya fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)*
***Chudakova Vera Petrovna****, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*
***Kozubsov Igor Nikolayevich****, pedagogika fanlari doktori, dotsent (Kiyev, Ukraina)*
***Mustafa Said Arslon****, filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)*
***Tadjixodjayev Zokirxoʻja Abdusattorovich****, texnika fanlari doktori, professor*
***Toʻxsanov Qahramon Rahimboyevich****, filologiya fanlari doktori, dotsent*
***Muhitdinova Xadicha Sobirovna****, pedagogika fanlari doktori, professor*
***Niyozmetova Roza Hasanovna****, pedagogika fanlari doktori, professor*
***Sobirova Maxbuba Yusupdjanovna****, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
***Jumayev Yoʻldosh Gʻafurovich****, yuridik fanlari nomzodi, dotsent*
***Oʻrayeva Darmonoy Saidaxmedovna****, filologiya fanlari doktori, professor*
***Rahimov Sharof Amonovich****, fizika-matematika fanlari doktori, dotsent*
***Rasulov Toʻlqin Husenovich****, fizika-matematika fanlari doktori, professor*
***Hayitov Shodmon Axmadovich****, tarix fanlari doktori, professor*
***Toʻrayev Halim Hojiyevich****, tarix fanlari doktori, professor*
***Vohidov Shodmon Husenovich****, tarix fanlari doktori, professor, Marmara universiteti (Turkiya)*
***Mahmudov Nosir Mahmudovich****, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*
***Boʻtaboyev Muhammadjon Toʻychiyevich****, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*
***Ibragimova Gulsanam Nematovna****, pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Kadirov Xayot Sharipovich****, pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Jalilova Saboxat Xalilovna****, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent*
***Sidiqova Diloro Shavkatovna****, pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)*
***Abdullayeva Feruza Nurilloyevna****, pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
***Saidqulova Firuza Farmonovna****, pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
***Temirov Farrux Umedovich****, tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
***Atabayeva Nargis Batirovna****, psixologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)*
***Xudoyqulov Xol Jumayevich****, pedagogika fanlari doktori, professor*
***Jumaniyozova Muhabbat Husenovna****, filologiya fanlari nomzodi, dotsent*
***Farmonova Shabon Muhamadovna****, pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori(PhD) , dotsent*

***Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich***, *pedagogika fanlari doktori(DSc), dotsent*
***Rajabov To'xtasin Ibodovich***, *pedagogika fanlari doktori(DSc), professor*
***Qilichov Oybek Abdurasulovich***, *tarix fanlari doktori (DSc)*
***Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevich***, *pedagogika fanlari doktori(DSc), professor*
***Qodirov Rashid Hamidovich***, *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*
***Toshtemirov Oybek Abidovich***, *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)*
***Qahhorov Siddiq Qahhorovich***, *pedagogika fanlari doktori, professor*
***Axadov Ma'murjon Sharipovich***, *pedagogika fanlari doktori (DSc)*
***Ma'murov Bahodir Baxshulloyevich***, *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
***Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich***, *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
***Jumayev Rustam G'aniyevich***, *Siyosatshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor*
***Jo'rayev Akmal Razzoqovich***, *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor*
***Shadiyeva Nigora Sharipovna***, *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
***Hayitov Hamza Axmadovich***, *filologiya fanlari doktori (DSc), professor*
***Nazarov Mustaqim Rashidovich***, *texnika fanlari nozodi, dotsent*
***Jamilov Yusuf Yunus o'g'li***, *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
***Uzoqov Asliddin Mexritdinovich***, *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
***Murtazoyev Azizbek Nusrat o'g'li***, *texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
***Ergashev Jahongir Yunus o'g'li***, *tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
***Nazarov Akmal Mardonovich***, *psixologiya fanlari doktori (DSc), professor*
***Murodov Sherzod Normonovich***, *fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
***Muxtorov Erkin Mustafoyevich***, *psixologiya fanlari nomzodi, dotsent*
***Po'lotova Yulduz Asadovna***, *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
***Ashurova Marhabo Sayfulloyevna***, *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
***Omonova Dildora Nekmurodovna***, *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*
***Adizova Nigora Baxtiyorovna***, *filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
***Raupov Sohib Saidovich***, *tarix fanlari nomzodi, dotsent*
***Sirojov Ochil Sirojovich***, *tarix fanlari nomzodi, professor*
***Baxtiyor Nazarboyevich Rizayev***, *tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*
***Muxamedov Shavkat Madjitovich,*** *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

## MUNDARIJA

**07.00.00 – TARIX ... 7**

**Temirov Farrux Umedovich.** Jahon olimlari hamda adiblarning Sadriddin Ayniy ilmiy merosiga bergan baho va qarashlari ... 7
**Rajabov Oybek Iskandarovich.** Xo‘ja Ka’bul Axbori vali muqaddas qadamjosi ... 12
**Alijonova Gulnozaxon Muxammad qizi.** Rizouddin ibn Faxriddin ilmiy merosi tarixnavisligi ... 15
**Rahmonov Kamol Jamolovich.** BXSRning tashqi aloqalariga oid tarixiy manbalar va ulardan ta’lim jarayonida foydalanish imkoniyatlari ... 22
**Qosimova Jasmina Ilhom qizi.** Ta’lim manbalarida muallimlik maqomi ... 27

**PEDAGOGIKA ... 30**

**Ruziyev Davron Yuldashevich.** Yuqori malakali mohir sozandalarni tayorlashda konsert ijrochiligining ahamiyati ... 30
**Umurov Zarif Latifboyevich.** Dual ta’limni tashkil etishning nazariy asoslari ... 35
**Ismailov Murodulla Kaxramonovich.** Bo‘lajak ijtimoiy ish xodimlarida sanogen refleksiyani rivojlantirishning kognitiv xususiyatlari ... 41
**Ahmadov Olimjon Shodmonovich.** XIX asr oxiri XX asrning 30-yillarida Buxoroda ta’lim – tarbiya muammolari: yutuqlar, foydalanilmagan imkoniyatlar va mafkuraviy ta’sir masalalari . 46
**Azimov Sanjar Samadovich.** Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi tuzilishi ... 49
**Mirzayeva Dilfuza Shavkatovna.** Art pedagogikasi asosida maktabgacha tayyorlov guruh bolalari kompetensiyasini rivojlantirish ... 52
**Abdullayeva Feruza Nurillayevna.** Kreativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida lug‘atni o‘rgatish strategiyalari ... 55
**Maxmudova Manzura Jurayevna.** Geografiya fanini o‘qitishda tadqiqot metodlaridan foydalanish texnologiyalari ... 59
**Husenova Aziza Sharipovna, Xudjayeva Ra’no Ruzimuradovna.** Birinchi sinf o‘quvchilarini yozuvga o‘rgatishning samarali yo‘llari ... 64
**Xuramov Ilxom Panjiyevich.** Bo‘lajak bshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirishda sun’iy intellekt tizimlarining o‘rni ... 68
**Ro‘ziqulov Mels Alijon o‘g‘li.** Uzoq masofalarga yuguruvchilarning funksional tayyorgarligini shakllantirish metodikasi ... 73
**Muhabbat Husinovna Jumaniyozova.** Ona tili ta’limida uzviylikni ta’minlashning konseptual asoslari ... 77
**Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna, Abdusamadova Baxtigul Sa’dullo qizi.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ... 80
**Tokumbetova Mehribonu Shavkat qizi.** Oliy ta’limda tanqidiy fikrlashning ahamiyati ... 85
**Maqsuda Maxsudovna Murodova.** Interaktiv o‘quv vositalari yordamida boshlang’ich sinf o‘quvchilarida o‘qish va tinglash malakalarini takomillashtirish ... 89
**Baltayev Umid Rustamovich.** Maqom ijrochilik malakalarini shakllantirishda “ustoz-shogird” an’anasining ahamiyati ... 95
**Jo‘rayeva Turg‘unoy Umarjonovna.** Ta’lim jarayonida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi ... 99
**Shikarov Tolib Tavakalovich.** Pedagogik faoliyatda kompyuter texnologiyalarning o‘rni ... 104
**Karimov Xamidbek Otaxanovich.** Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy individualligini shakllantirishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ... 109
**Baxramova Madina Rasulovna.** Oliy ta’limda modulli o‘qish texnologiyalarining mazmuni va mohiyati ... 113

**Rajabov Oybek Iskandarovich**
Buxoro davlat universiteti
arxeologiya va Buxoro tarixi
kafedrasi katta o‘qituvchisi

# XO‘JA KA’BUL AXBORI VALI MUQADDAS QADAMJOSI

***Annotatsiya**. Mazkur maqolada Buxoro viloyati Kogon tumanida joylashgan o‘rta asrlarda shakllangan tarixiy me’moriy majmua hisoblangan Xo‘ja Ka’bul Ahbori vali ziyoratohining vujudga kelishi, qadamjoning shakllanishidan hozirgi davrga qadar bo‘lgan tarixiy jarayonlar ilmiy manbalar hamda dala tad’qiqot materiallari asosida yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar**: Buxoro, Kogon, Muqaddas qadamjo, masjid, qabriston, quduq, tug‘, me’moriy obida.*

## СВЯТИЛИЩЕ ХОДЖИ КАБУЛА АХБОРИ ВАЛИ

***Аннотация.** В данной статье на основе научных источников и материалов полевых исследований освещена история создания паломничества Ходжа Кабул Ахбори Вали, расположенного в Каганском районе Бухарской области, исторические процессы от формирования памятника до настоящего времени.*

***Ключевые слова:** Бухара, Каган, святыня, мечеть, кладбище, колодец, гора, архитектурный памятник.*

## HOLY STEP OF KHOJA KA'BUL AKHBORI WALI

***Annotation.** This article covers the history of the emergence of the Khoja Ka'bul Ahbori Wali pilgrimage, located in the Kagan District of Bukhara region, the historical processes from the formation of the khadjah to the present period based on scientific sources and field research materials.*

***Keywords:** Bukhara, Kagan, Holy stepjo, Mosque, cemetery, well, tug, architectural monument.*

**Kirish.** Xalqimiz ko‘p ming yillik tarixi davomida rivojlanib, madaniyati yuksaldi. Betakror va qadimiy yurt o‘zining boy tarixiy, moddiy va ma‘naviy merosida buyuk allomalarga ega bo‘ldi. Ko‘hna Buxoro tarixi asrlar silsilasida mudom yuqori mavqeda turgan va sharif shaharda yetishib chiqqan buyuk allomalarning boy ilmiy merosi, o‘lkani butun dunyoga tanitgan. Buxoroyi Sharifning 3000 yillik tarixi mobaynida ko‘plab allomalar yashab ijod etdi. Dunyoga tanigan allomalarning ma’naviy merosi, ibratli hayot yo‘li, odobi, kasbu-kori, ilmu ma’rifati, tabarruk qadamjolar davrlar osha o‘z ahamitini saqlab qolmoqda.

**Metodlar.** Maqola umume’tirof etidgan tarixiy taqqoslash, retrospektiv tahlil, tizimlashtirish kabi usullar asosida bayon etilgan bo‘lib, Buxorodagi muqaddas qadamjoning ijtimoiy-tarixiy ahamiyati masalalari tahlil qilingan.

**Tadqiqot natijalari.** Xoja Ka’bul Ahbori vali ziyoratgohi Buxoro viloyatining Kogon tumani To‘dako‘l yaqinidagi «Xo‘jkab» qishlog‘ida joylashgan. Ziyoratgoh cho‘l hududida joylashgan bo‘lib, yer usti yumshoq qum, ostki qismi esa juda qattiq qatlamdan iborat. Qadimda bu joylar (Zarafshon va Qashqadaryo daryolarining qo‘shilgan joyi “quyimozor” massivi) juda obod bo‘lgan. Hududdagi tepalik qadimgi davrda katta bir qal’a bo‘lgan. Qal’a atrofi bog‘lardan iborat bo‘lib, dehqonchilik qilish uchun serhosil yerlar, chorvachilik qilish uchun sharoit qulay bo‘lgan. Maskan Buyuk ipak yo‘lida joylashganligi sababli xalqi juda boy va o‘ziga to‘q bo‘lishgan. Bu yerda karvon saroy bo‘lib, qo‘shni viloyatlardan kelgan savdogarlar shu karvonsaroyda tunab, so‘ngra yo‘lga chiqishgan. Xalqi ma’rifatli va madaniyatli bo‘lgan. 2008-

2009 yillarda maskanda ziyoratchilar va hududda faoliyat olib boruvchilar uchun tahoratxona tiklash jarayonida yer kovlanganda qadimgi uy-joylar, binolarning qoldiqlari topilgan.

Hazrat Ka'bul Ahbor - tobe'yn, valiyulloh, olim hisoblanadilar. Bir necha kitoblar muallifi sifatida mashhur. Manbalarda aytilishicha Hazrat Ka'bul Ahbor Muhammad s.a.v. tirikliklari vaqtida islomni qabul qilmagan. Ka'bul Ahbor Hazrat Umar r.a. va Hazrat Oyshadan hadis rivoyat qilganlar. Ibn Sa'dning rivoyat etishicha, Ka'bul Ahbor ulkan olim bo'lib, o'zgartirilmagan, asl Tavrotdan qissalar aytib berarkan. Ka'bul Ahbor: "Yorg'uchoq o'z o'qi atrofida aylangan kabi yer ham o'z o'qi atrofida aylanadi"- degan.

Abu Homid G'azzoliyning "Mukoshafatul qulub" nomli asarlarida Kabul Ahborning hikmatlari va shu kitobning oxirida tarjimai hollari berilgan: "Ka'bul- Ahbor: to'la ismi Abu Ishoq ibn Moti' ibn Hoysu. Paygambarimizdan keyingi ikkinchi xalifa Umar r.a. zamonlarida musulmonlikni qabul qilgan yamanlik yahudiylardan bo'lib, arablardagi isroiliy va musulmon rivoyatlarining eng eski roviysi hisoblanadi. Muoviya Suriya voliysida bo'lgan davrda saroyda mudarrislik qilar va voliy maslahatchisi edi. Vafoti melodiy 652 yildir. Ka'bul Ahbor 104 yil umr ko'rgan, qabrlari Xims (Suriya)dadir.

Tepalikdagi maqbara ichida 14 metrli sog'onada Ka'bul Axborning (VII-VIII asrga oid) qabrlari bo'lib, u kishining oyoq uchlarida xizmatkorlari Abdulloh Zohid ibn Asad dafn qilinganlar. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" kitobida yozilishicha, Buxoro fathi arablar tomonidan 673 yilda boshlangan. Ya'ni Ka'bul Ahbor vafotlaridan 21 yil o'tgandan keyin arablar Buxoroga kelgan. Shu bois Kogon tumanidagi Xoja Ka'bul Ahbor ziyoratgohi qadamjo sifatida keyin barpo etilgandir. Maqbara oldida masjid qurilgan bo'lib, masjidning quyosh chiqar tomonida allomaning ikkinchi xizmatkorlari Mahmud ibn Hamid dafn qilinganlar. Masjidning orqasida esa maydoni 40-50 gektar keladigan qabriston bor. Bu sahroda katta hajmdagi qabristonning qanday vujudga kelganligi har bir insonni qiziqtirishi tabiiy. Qabristonning vujudga kelish sabablariga to'xtaladigan bo'lsak, bu yerdagi ko'plab marmardan yasalgan qabr toshlari bu yerda 1000 yildan buyon insonlar dafn etilayotganligidan guvohlik beradi.

Maskandagi qabr toshlarida turli sura va oyatlar, dafn qilinganlarning ismi sharifi bitilgan. Toshlardagi yozuv sanalari esa qariyb ming yillik muddatni ko'rsatadi. Hatto ba'zi toshlarni juda qadimiyligi, uzoq vaqt o'tganligi bois yozilgan yozuvlarning ko'pgina harflari ko'chib tushgan. Qadamjoda XI asrdan boshlab dafn etilgan qabrlarda yosh bolalar va erkaklar mozori ustida qo'yilgan toshlarga "bobo" (jumladan, Abdurahmon bo'lsa-Bobo Abdurahmon), qiz va ayollar mozori ustidagi toshlarga "momo" (Jumladan, Hanifa bo'lsa-Momo Hanifa) deb bitilgan. Qabristonning umumiy maydoni taxminan 50 gektardan kattoroq bo'lib, maskur hududda o'rta asr, rivojlangan o'rta asr hamda hozirgi davrgacha mayitlar qo'yilmoqda. Rus bosqinidan keyin tepalik va uning atrofidagi binolar buzib tashlangan, maskan aholisining ko'pchiligi Qashqadaryo viloyati, Muborak tumani Qorliq mahallasiga ko'chib ketgan. Hozirgi davrgacha ham ushbu mahalla vakillari o'zining avlodlarini shu maskanga keltirib dafn etishadi.

XX asrning 70 yillaridan boshlab Kogon shahar "JBI" (Jelezobetonniy izdeliya i konstruksiya) tashkiloti xodimlari (boshqa millat vakillari) vafot etgandan so'ng shu manzilda ko'milgan (bu sobiq tuzum davridagi siyosiy holat, chunki musulmon va boshqa din vakillari bir qadamjoda dafn etilmaydi). Qadamjoning shimoliy qismida 2007-2008 yillarda Kogon tumanida istiqomat qilayotgan lo'li millatiga mansub bo'lgan aholiga ham joy ajratilgan. Ammo ba'zi bir ijtimoiy-ma'naviy sabablarga ko'ra ularning hozirgi kunlarda olamdan o'tgan qon-qarindoshlari Kogon tumanidagi Xo'ja bargi qadamjosida dafn etilmoqda.

Qadamjodagi eski masjid, gumbaz va ko'plab tarixiy maskanlar 1987 yil buzib tashlangan. Hazratning qabrlari 1995 yilda qayta ta'mirlangan. Shuningdek, 2004 yil Marat Sharipov tomonidan qadamjodagi 14 metrlik qabr chet ellik ekspedisiya vakllari bilan zamonaviy texnik aspoblar orqali tekshirilgan hamda qabrda 9 metrlik odam yaxlit suyak qoldiqlari borligi aniqlangan. Mozorda haqiqatdan ham odam ko'milgan degan xulosaga kelingan. 2008-2009 yillarda maskanda ko'plab qurilish ishlari tuman va mahalla tashabbuskor aholisi yordamida hashar yo'li bilan amalga oshrilgan, hudud ancha obod qilingan, mozor hamda ziyoratgoh

binolarining atrofi oʻrab olingan. Hozirgi kunda mazkur qadamjoda Anvar Toʻqov imom xatiblik qilib kelmoqdalar.

**Xulosa.** Ulugʻ qadamjoni obod qilish, tariximizni qayta tiklash va uni teranroq anglash, yoshlarimiz maʻnaviyatini yanada yuksaltirish yoʻlidagi bir saʼy-harakat boʻlib, ming yillardan qon-qonimizga singib ketgan dinu-diyonatni, urf-odat, ezgu amallarni davom ettirish, xalqning muqaddas burchi ekanligini unutmasligimiz lozim. Tarix xalq maʻnaviyatining asosi, uni asrash har bir insonning burchidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Абу Ҳомид Ғаззолий “Мукошафатул қулуб”,Т.,“Адолат”, 2002 йил.
2. Садриддин Салим Бухорий Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. Тошкент, 2012 йил.
3. Н.Йўлдошев, Ҳ.Қурбонов Бухоро шаҳри ва унинг атрофидаги зиёратгоҳлар тарихи. Бухоро, 2001 йил.
4. Н.Йўлдошев Бухоро авлиёлари. 1997 йил.
5. “Сараланган саҳифалар”, “Мовароуннахр”, Т. 2003 йил.
6. Дала тадқиқотлари. 2022 йил, декабр.
7. Дала тадқиқотлари. 2023 йил, феврал.